



THE RELIGIOUS IMAGE OF AMIR HAIDAR IN THE IMAGE OF ALEXANDER BURNES

Sharofatoy Mannobjonova

Independent Researcher

E-mail: sahroquli@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: A. Burns, “Big Game”, Amir Haydar, “tateel”, “tahseel”, “Amir ul-mo‘minin”, “Bukhara trip”, “Amir Said”, “king”.

Received: 15.09.26

Accepted: 16.09.26

Published: 17.09.26

Abstract: This article provides information about the trip to Bukhara and the impressions of the British diplomat Alexander Burns, who played an important role in the political struggles that took place in Central Asia in the 1930s. His work “Travels of Bukhara”, enriched with historical events and geographical notes, is also analyzed. In particular, the article examines the political and religious activities, state administration, and patronage of science of the Emir of Bukhara Haidar in Burns’s image.

ALEKSANDR BYORNS TASVIRIDA AMIR HAYDARNING DINIY QIYOFASI

Sharofatoy Mannobjonova

Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: sahroquli@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: A.Byorns, “Katta O‘yin”, Amir Haydar, “tateel”, “tahseel”, “Amir ul-mo‘minin”, “Buxoro sayohati”, “Amir Said”, “qirol”.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning 30-yillarida Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy kurashlar fonida muhim rol o‘ynagan ingliz diplomati Aleksandr Byornsning Buxoroga safari va sayohatdan olgan taassurotlari haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, uning tarixiy voqealar va geografik qaydlar bilan boyitilgan “Buxoro sayohati” asari tahlil qilinadi. Jumladan, maqolada Buxoro amiri Haydarning siyosiy va diniy faoliyati, davlat boshqaruvi va ilm fanga

qilgan homiyligi Byorns tasvirida tadqiq qilinadi.

РЕЛИГИОЗНОЕ ИЗОБРАЖЕНИЕ АМИРА ХАЙДАРА НА ПОРТРЕТЕ АЛЕКСАНДРА БЕРНСА

Шарофатой Маннобжоновна

Независимый исследователь

E-mail: sahroguli@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: А. Бернс, “Большая игра”, Амир Хайдар, “татиль”, “тахсиль”, “Амир уль-муминин”, “поездка в Бухару”, “Амир Саид”, “король”.

Аннотация: В данной статье представлена информация о поездке в Бухару и впечатлениях британского дипломата Александра Бернса, сыгравшего важную роль в политической борьбе, происходившей в Центральной Азии в 1930-х годах. Также анализируется его труд «Путешествия по Бухаре», обогащенный историческими событиями и географическими заметками. В частности, в статье рассматривается политическая и религиозная деятельность, государственное управление и покровительство науке эмира Бухары Хайдара в интерпретации Бернса.

Kirish. Tadqiqot jarayonida shu ma’lum bo’ldiki, Aleksandr Byornsning hayoti va faoliyati nafaqat chet el tadqiqotchilar balki bir qator yosh o’zbek tadqiqotchilari tomonidan ham keng tarzda tadqiq qilindi. Misol uchun A.Zamonov kabi yirik olim Byornsni Buxoro amirligining ijtimoiy iqtisodiy ahvolini bayon qilganligini aytgan bo’lsa [3:16], shu bilan bir qatorda A.Adashaliyev ekspeditsiya tashkil qilinish sabablari [2:164], B.Tojiyev Buxoro qushbegisi bilan uchrashganini[7:36] D.Sharopov esa savdo-iqtisodiy munosabatlarga Byorns bergan ma’lumotlarni tahlil qilganini [8:607] aytishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. XIX asrning 30- yillariga kelib dunyo siyosati va xaritasida katta o’zgarishlar yuz berdi. Yirik va kuchli davlatlar o’z mustamlakalarini tobora kengaytirib borgani sari kuchsiz va qoloq Osiyo mamlakatlari katta jang maydoniga aylanib qoldi. Bu jarayonlar keyinchalik “Katta o’yin” nomi bilan tarixga kirdi. “ Katta O’yin” atamasini birinchi bo’lib ingliz josusi Artur Kanolli o’zining qaydlari ishlatganligi haqida manbalar mavjud. “Buyuk o’yin” iborasi birinchi marta Rossiya va Markaziy Osiyo kontekstida 1840-yilda omadsiz kapitan

Konolli tomonidan ishlatilgan. Konolli uchun o‘yin metaforasi ruslar Britaniyaning potentsial raqiblari, Markaziy osiyoliklar esa uning bevosita raqiblari bo‘lgan musobaqani anglatardi. [4:62]

Bu atama o‘z mazmuni bilan ikki buyuk davlat Rossiya va Buyuk Britaniyaning o‘z manfaatlari yo‘lida Markaziy Osiyoni egallash va talon-taroj qilishni maqsad qilganligini yaqqol misolidir. Bu shiddatli manfaatlar to‘qnashuvida har ikki tomon ham o‘zining “sayohat” niqobi ostida ekspeditsiyalarini uyushtira boshladilar. “Katta O‘yin”ning markazida bo‘lgan sayohatchi, diplomat va shu bilan birgalikda sobiq zobit Aleksandr Byorns 1830-1839 yillardagi o‘zining 9 yillik sayohati davomida Hindistondan to Buxoroga qadar safar qildi. Bu haqida ba’zi zamonaviy tadqiqotlarda ham bir qator ma’lumotlar uchraydi. 1831-yildan 1833-yilgacha u Panjob, Afg‘oniston va Buxoro xonligiga razvedka missiyasida tashrif buyurgan. U Londondagi sayohati haqida kitob nashr etgan va bu unga “Buxoro Bernsi” laqabini bergan. 1836-yilda u Afg‘oniston amiri Do‘st Muhammad huzuriga diplomatik missiya bilan yuborilgan (rus elchisi I. Vitkevichning harakatlari tufayli missiya muvaffaqiyatsiz yakunlangan). Garchi u Afg‘onistonga aralashuvga qarshi bo‘lsa-da, Birinchi Angliya-Afg‘on urushining tashkilotchilaridan biriga aylangan. U 1841-yilda Kobuldagi qo‘zg‘olon paytida o‘ldirilgan. Uning Hindiston vitse-qirolligi bilan yozishmalari “Moviy kitob”da nashr etilgan va Britaniya hukumatining Afg‘onistondagi ekspansionistik intilishlarini fosh qilgan. U “Buxoroga sayohat” kitobining muallifidir. [11:320]

Shuningdek, Lahorga safarining muvaaffaqiyatidan keyin ingliz hukumati undan yana bir maxfiy topshiriqni ya’ni Markaziy Osiyo Qobul va Buxoroga borishni va rus ta’sirini o‘rganishini talab qilishdi. Chunki, bu paytda Ruslar Turkmanchoy shartnomasini imzolagan bo‘lib, unga ko‘ra Kavkazning bir qismi ruslar tomonidan olingan edi. Safar davomida Byorns Balx orqali Buxoroga yetib keldi. Bu orada ba’zi manbalarga ko‘ra Byorns Amudaryo bo‘yida o‘zi kabi diplomat va josus Murkroft va uning guruhidagilarni dafn qilishda ishtirok etdi. Buxoroga yetib kelgach esa Buxoro qushbegisi qabulida va sinovida bo‘ldi. Uchrashuv davomida Byorns bir necha bor o‘zini josus emasligini Qushbegiga isbotlashga urindi. Shundan so‘nggina Buxoro va uning muhiti bilan tanishish imkoniga ega bo‘ldi.

Bosh vazir Aleksandr Byorns bilan Buxoro va Britaniya o‘rtasidagi savdo masalalarida uzoq suhbatlashadi. U mamlakatlar o‘rtasidagi aloqani kuchaytirish kerakligini bildiradi. Vazir Aleksandr Byornsdan savdo elchisi sifatida Buxoroga qaytishini iltimos qiladi va qaytishida bitta yaxshi ko‘zoynak olib kelishini so‘raydi. [7:98]

Adabiyotlar tahlili. Berns o‘zining “Sayohat” asarida Buxoroning o‘zi va u bosib o‘tgan hududlar haqida keng ma’lumot beradi. Qimmatli geografik va mineralogik ma’lumotlar bilan bir qatorda, muallif XIX asr boshlarida Buxoro xonligining axiografiyasi, boshqaruvi, fan, ta’lim, qishloq xo‘jaligi, shahar hayoti va arxitekturasi bo‘yicha materiallarni tizimlashtiradi. Bu safarda

Britaniya manfaatlari uchun zarur bo'lgan razvedka ma'lumotlari , geografik xaritalar , maxfiy ma'lumotlarni yig'di . Uning ko'plab ma'lumotlarni o'z ichiga olgan 3 jildlik "Buxoro sayohati" asari tarixiy-etnografik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan nihoyatda qimmatli sanaladi. Jahon ilmiy adabiyotida ham o'rni beqiyos va shu sababli nashr qilinishi bilanoq tezda mashhurlikka erishgan va fransuz nemis tillariga tarjima qilingan. Uning Buxoroga safar qilishi va XIX asr Buxorosiga o'z nuqtayi nazaridan baho berishi va qimmatli ma'lumotlar berishi taxsinga sazovordir. U faqatgina sayyoh sifatida emas voqeylikka boshqa millat, din vakili sifatida ham ko'z tashlagan. Ayniqsa, uning Buxoro tarixi, madaniyati, iqtisodiy-siyosiy ahvoli, davlat boshqaruvi, diniy hayoti haqida bayon qilganlari biz uchun bugungi kunda ham nihoyatda muhim ma'lumotlar sanaladi. Bernsning siyosiy agent va diplomat sifatidagi faoliyati bitta maqsadga bo'ysundirilgan edi: Angliyaning Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi ta'sirini yoyish. Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixi va hozirgi siyosiy vaziyatini chuqur bilishi bilan zamondoshlarini hayratda qoldirgan mohir diplomat A. Berns ham G'arbda, ham Sharqda hurmatga sazovor bo'ldi.[10:6]

Uning Buxoro haqida geografik qaydlari, diplomatik ma'lumotlari ko'p tadqiq qilingan bo'lsada madaniy va diniy hayotga oid mavzulari hali batafsil tadbiq etilmagan. Byorns asarda Buxoro musulmonlari, masjidlari, madrasalar va ilm fanga bo'lgan munosabat haqida fikr yuritarkan Amir Haydar faoliyati va uning diniy siymosiga alohida e'tibor qaratdi. U shaxsan Amir Haydar bilan uchrashmagan (vafot etgan), taxtda uning o'g'li hukmron bo'lsada hali uning diniy obrazi xalq yodidan ketmaganiga guvoh bo'ladi. Amir Haydarning hayot faoliyatini o'z qarashlari bilan nomutanosib baholaydi va uni mutaassib hukmdor sifatida tasvirlaydi. Amir Haydarning xudojo'yligi , diniy ta'limga xuddi otasidek kuchli e'tibor qaratganligi Byorns tasavvurida biroz salbiylashadi. Amir Haydar shaxsiyati faqat siyosiy hokimiyati bilan emas balki diniy legitimatsiyasi bilan ham ajralib turadi va Byorns tomonidan tahlil qilinadi. Asarda Amir Haydar "Amir ul mominin" diniy -siyosiy unvoni bilan namoyon bo'ladi. Shuningdek u diniy faoliyati bir qator amallar bilan izohlanadi. Misol uchun Amir Haydar diniy rahnamo sifatida

1. Buxoro diniy ilm va madrasalar homiysi
2. Vafot etgan musulmonlar uchun Qur'on tilovat qilgan imom
3. Madrasalarda ilmiy munozaralar uyushtirib shaxsan ishtirok etuvchi
4. Ulamolar bilan bevosita faoliyat yurituvchi sifatida tasvirlanadi

Ammo Byorns Amir faoliyatini dunyoviy ilmlarni chetga surib aniq fanlar, adabiyot va san'atni rivojiga to'siq qo'yganlik bilan ayblaydi. Ilm-fan temuriylar va Bobur bilan gullab yashnagani mang'itlar davriga kelib zaiflashgani Byorns xafsalasini pir qiladi. Byorns ilm-fan o'rta asrlar renessansi haqida fikr yuritarkan o'z asarida shunday deydi. "Ammo endi, menimcha,

ular Movarounnahr bilan abadiy xayrlashgandek: marhum hukmdor Meer Haydar yoki Sa'id ("pok")ning hukmronligi mutaassiblik va diniy jo'shqinlik davrini boshlab berdi. U "Ameer-ool Momeneen", ya'ni "Mo'minlar amiri" unvonini oldi va podshohdan ko'ra "ruhoniylar" vazifalarini bajardi: marhumlar uchun duo o'qidi, masjidlarda bahs-munozaralarda qatnashdi, diniy marosimlarni boshqardi va madrasalarda dars berdi.[5:312]

Bundan tashqari boshqa tadqiqotlarda Somiy asarining Amir Haydar haqidagi ma'lumotlari asosida uning "Amir ul-mominin" unvonidan foydalangani qayd etiladi [13:56]

"Tuhfataz- zoirin" asarida esa uning o'g'li amir Haydar ham "Amir Said" va "Firdavs Makoniy" kabi nomlar bilan xalq orasida tanilgani haqida ma'lumotlar bor. Ba'zi manbalarning guvohlik berishicha amir Haydarning "Amir" yoki "Oliy" nomli madrasalar qurdirganligiga ham duch kelamiz. Amirlar Shohmurod va Haydar hatto madrasalarda mudarris domla bo'lib faoliyat ham yuritganlar.[1:205]

Byorns Amir Haydar "ruhoniylar" deb atab uni mutassiblikda qoralaydi va inglizcha "bigotry"- mutaassiblik deya izohlaydi. Bu yerda, albatta Amir Haydar faoliyatini mutassib deb tasdiqlash noto'g'ri chunki Byornsning fikrlari chet ellik sayyohning o'z qarashlarini namoyon etishi xolos. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, Amir Haydarning diniy va siyosiy faoliyati mahalliy tarixchilar asarlarida va o'sha davr manbalarida boshqacha tasvirlanadi. Ayniqsa, saroy tarixchisi Mirza Abdulazim Somiy o'zining "Tarixi salotini mang'itiya" asarida Amir Haydarni "saxovatpesha, olim, odil podshoh edi.Barcha ilmlardan yetarlicha xabardor bo'lib ilm ila shug'ullangan paytlarida qori, davlat ila bandligiga qaramay, ilmi ilohiyotni o'rganmoqda bo'lgan tolib ul-ilmlarga saboq berar va shogirdlarining davrasi ming kishidan kam bo'lmasdi"[12:53] deya yozadi.

Albatta, manbalarda Amir Haydarning ilm-fan va ta'lim tizimiga bergan e'tibori va bu yo'lda ko'plab madrasalar qurilishiga homiy bo'lganligi batafsil yoritilgan. Misol tariqasida, uning Buxoro arkidagi masjid oldida madrasa qurdirgani o'zi ham shu madrasada faoliyat yuritib "Sharhi Kofiya", "Shamoili Nabaviy" dan dars berganligini aytishimiz mumkin.

Shuningdek, Byorns Amir Haydar haqida eshitganlarini bayon qilar ekan amirning taqvodor va so'fiy qiyofasi muallifni hayratga soladi va asarda shunday Bir safar ko'chada u sayyid yoki xo'janing salomini qaytarish uchun otdan tushdi; bo'sh vaqtining butun qismini esa diniy tafakkur va mushohadaga bag'ishladi.

Byorns asarining "qirol" bo'limida Amir Haydarning o'g'li Bahodirxonni tasvirlar ekan uni otasi kabi dinni qattiq ushlamasligini o'z qarashlari bilan ijobih baholaydi va shunday deydi: Bu shoh Bahadur Xonning fe'l-atvori vatandoshlari orasida yuksak qadrlanadi: taxtga ko'tarilganida u o'zining barcha boyliklarini nafaqaga chiqargan. U diniy marosimlarda qat'iy,

ammo otasi Meer Haydarga qaraganda mutaassib emas. U Qur'onga muvofiq harakat qiladi. Barcha hollarda; va u hatto yahudiylar va hindulardan olinadigan boshliq solig'i bilan ham yashaydi, deb da'vo qilinadi. Mamlakat daromadlari mullalar va masjidlarni saqlashga sarflanadi, deyiladi; ammo bu yosh qirol shuhratparast va jangovar, va menimcha, u o'z xazinalaridan qo'shinlarini saqlash va kuchini oshirish uchun foydalanishi ehtimoli ko'proq.[5:293]

Shuningdek, Ahmad Donishning Amir Haydar shaxsiyatiga bergan ta'rifi Aleksandr Byornsning xulosalariga o'xshab ketadi. Bu yuqori martabali podshohning o'zi ham, hatto bolaligida ham, diniy ilmlarni puxta o'rganishga va Qur'onni yodlashga, shuningdek, har ikki kunda ro'za tutishga qasamyod qilgan. U o'z qasamiga muvofiq bu uchta majburiyatni bajargan. Hukmronligi davrida, harbiy yurishlardan va dushmanlarni qaytarishdan ozod bo'lgan vaqtlarida, amir olimlar bilan ta'lim berish, munozara qilish va suhbatlarga qaytgan. U barcha dunyoviy narsalardan voz kechib, doimiy ro'za tutdi, bir kun ovqat yedi, boshqa kun ro'za tutdi. Va ro'za tanaffusida u shariat ruxsat bergan narsalar bilan kifoyalanib, ortiqcha narsalarga berilmadi.[9:37]

Tahlil va natijalar. Byorns asarda Amir Haydar va Qo'qon xoni taqqoslanar ekan ularning diniy-siyosiy faoliyati muallif e'tiborini tortadi va shunday baholaydi. Uning Qo'qondagi qo'shnisi ham xuddi shunday yo'l tutdi: u "Ameer-ool Mooslimeen", ya'ni "Musulmonlar amiri" unvonini qabul qildi. Ularning ikkalasi birgalikda Turkistonda yangi tartibni joriy etdilar. Shundan keyin madrasalardagi mullalar ilohiyotdan boshqa barcha ilmlarni, Qur'on va uning tafsirlaridan boshqa barcha fanlarni mensimay qo'yidilar. Buxoro va Qo'qon butun Turkistonni o'z ichiga oladi, deb aytish mumkin, chunki ular uning eng ta'sirchan ikki davlatidir. Buxoroning 366 ta madrasasi endilikda samarasiz aqidaviy-bahslar girdobiga tushib qolganidan afsuslanmaslik mumkin emas.[5:312]

Amir Haydarning diniy rahnamo sifatidagi obrazi ko'plab ilmiy manbalar va tarixchilar tasavvurida o'chmas iz qoldirgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero uning davrida islom shiati kengb yoyilib taraqqiy etgani, xalqi esa osoyishtalik va huzurda yashagani manbalardan ma'lum.

Buxoro madrasalar faoliyatini Byorns tasvirlar ekan 366 ta madrasada har birida 70-80 kishi ta'lim olishi ularning va ustozlarining nafaqasi davlat tomonidan qoplanishini bayon qiladi. Jumladan, madrasaga Erondan boshqa barcha mamlakatlardan tolibi ilmlar kelishligi va 7-8 yillik ta'limdan so'ng o'z yurtlariga qaytishini yoki ayrimlar butunlay Buxoroda qolib ketishligini o'z asarida qayd etadi. U ta'lim tizimi va tolibi ilmlarni o'z yurtidagi Oksford va Kembrij universitetlari bilan solishtiradi. "Kollejlar qirolning buyrug'i bilan yarim yilga yopiladi, bu ularning o'quvchilariga dalada ishlash va tirikchiliklariga qo'shimcha narsa olish imkonini beradi. Oksford va Kembrij talabalari bug'doyni o'roq bilan o'rish haqida nima deb o'ylashadi? Ta'til mavsumi "tateel", o'qish mavsumi esa "tuhseel" deb ataladi"[5:307] Bu yerda dam olish mavsumi

"tateel" arabchada ta'til deb atalishini va ta'til davrida Buxoro talabalari o'zlari va oilalarini moddiy jihatdan ta'minlash uchun dalalarda ishlashligini ma'lum qiladi.

Buxoro ma'rifatparvari, mang'itilar davri tarixchisi Ahmad Donish esa o'zining asarida Amir Haydarning boshqaruvi va faoliyatini o'ziga xos tarzda tasvirlaydi va bunday boshqaruv boshqa hech qayerda yo'q deya izoh beradi. Uning aytishicha, Amir Haydar davlat ishlaridan holi payti o'z huzuriga olim-u ulamolarni, tolibi ilmlarni yig'ar va turli mavzularda ilmiy suhbatlar tashkil etardi, uning huzurida hozir bo'lganlar odamlar ko'pligidan g'uj-g'uj" deya tasvirlanadi. Amirning bunday siyosati ilm-u fanga bo'lgan muhabbati dunyoga ovoza bo'lib boshqa davlatlardan ham tolibi ilmlar tashrif buyurishi bayon qilinadi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Byorns hayot yo'li shuni namoyon qiladiki, sharqshunoslik bo'yicha yuqori bilim saviyasiga ega bo'lgan ofitserlar Britaniyaning mustamlakalarda katta muvaffaqiyatga erishishida muhim omillardan biri bo'ldi. Xoynahoy, Britaniya Byornsdek diplomatlardan foydalanib, ularning sharqshunoslik bilimlari foyda berishini oldindan bilgan birdan bir hukumat edi.

Buxoroga siyosiy maqsadni ko'zlab maxfiy topshiriqlar bilan safar qilgan A.Byorns Amir Haydarning diniy va siyosiy qiyofasi, shaxsiy fazilatlari va o'limidan keyingi dovrug'ini o'z asarida hayratomuz tasvirlaydi. Va Amir faoliyatini islom dinining asosi so'z va amalning uning shaxsiyatida uyg'unlashgani va boshqa hukmdorlarda topilmaydigan taqvodor qiyofasiga alohida urg'u beradi. Garchand A.Byorns qarashlari va mahalliy tarixchilar ma'lumotlarida Amir Haydar faoliyati biroz farqli tasvirlansada yakuniy xulosa o'zgarmaydi. Chunki har ikki tomon ham o'zlarining diniy e'tiqodi va siyosiy nuqtayi nazarlari bilan Amir faoliyatiga baho berganlar. Aytish joizki, Byorns o'z ko'zi bilan ko'rgan qirol va hukmdorlar Amir Haydardek dinni o'z hayotiga tadbiq etib, uning asosida yashagan emaslar, va shu qarash bilan ham chet ellik tadqiqotchining musulmon hukmdor va diniy rahnamoga bergan ta'rifi, albatta, ajablanarli bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurasulova F. Buxoro amirligi din ulamolarining ma'naviy hayotida tutgan o'rni // Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha): Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Buxoro, 2024. – B. 204–207.
2. Adashaliyev A.Z. Aleksandr Byorns boshchiligidagi ingliz ekspeditsiyasini tashkil etilishi sabablari va O'rta Osiyoga sayohati // Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali. – 2025. – T. 4, № 02. – B. 164–169.
3. A. Zamonov, A. Egamberdiyev, Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XIX asr o'rtalari). – Toshkent: "Tamaddun", 2022. – 184-b.

4. Becker S. The 'Great Game': The History of an Evocative Phrase // Asian Affairs. – 2012. – Vol. 43, No. 1. – P. 61–80.
5. Burnes A. Travels into Bokhara; Being the Account of a Journey from India to Cabool, Tartary and Persia; Also, Narrative of a Voyage on the Indus, from the Sea to Lahore, with Presents from the King of Great Britain; Performed under the Orders of the Supreme Government of India, in the Years 1831, 1832, and 1833. Vol. I. – London: John Murray, 1834. – XII, 440 p.
6. Rajabov O.I. Bahovuddin Naqshbandning ma'naviy-ilmiy merosi xorijiy tadqiqotchilar talqinida // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – 2025. – №5 (122). – B. 234–237
7. Tojiyev, B.T. "1832-yilda Aleksandr Byornsning Buxoro amirligidagi faoliyati." Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2025, pp. 96–99
8. Sharopov D., Rajabov O. XIX asrning o'rtalarida Buxoro amirligida savdo munosabatlari (A. Byorns materiallari asosida) // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 4, Issue 6. – B. 606–610.
9. Дониш А. История Мангитской династии / Пер., предисловие и примечания И. А. Наджафовой. – Душанбе: Дониш, 1967. – 143 с.
10. Каландарова М. С. Геополитика Англии в Центральной Азии в 20–30-е годы XIX в. (по материалам экспедиции А. Бёрнса в Бухару в 1831 г.): автореф. дис. ... канд. ист. наук: 07.00.03. – М.: Ин-т востоковедения, 1995. – 19 с.
11. Леонтьев М. В. Большая игра. Британская империя против России и СССР. — М.; СПб.: АСТ; Астрель-СПб, 2012. — 347 с
12. Мирза Абдал Азим Сами. Тарих-и салатин-и мангитийа (История мангытских государей) / изд. текста, предисл., пер. и примеч. Л. М. Елифановой. – М.: Изд-во восточной литературы, 1962. – 331 с.
13. Россия — Средняя Азия. Политика и ислам в конце XVIII — начале XXI века. – М.: Издательство Московского университета, 2013. – 480 с.